



## INTERACTION OF NATIONAL AND HUMAN VALUES IN THE DEVELOPMENT OF PERSONAL SPIRITUALITY

*Inoyatkhan Madimarovna Arzimatova*

*Candidate of philosophy, associate professor*

*Teshaboyeva Khumora, 1st year student*

*Fergana State University*

*Email: [arzimatova1969@gmail.com](mailto:arzimatova1969@gmail.com)*

*Fergana, Uzbekistan*

### ABOUT ARTICLE

**Key words:** spirituality, aesthetic culture, national values, universal values, artistic education, creative activity, art, personal development, cultural integration.

**Received:** 25.06.26

**Accepted:** 26.06.26

**Published:** 27.06.26

**Abstract:** This article provides a comprehensive analysis of the interaction between national values and universal aesthetic wealth, including the culture, customs, and traditions of different peoples, in the process of enhancing personal spirituality. It also scientifically and theoretically substantiates the impact of aesthetic and artistic education on personal development, as well as its role in social and cultural progress.

## SHAXS MA'NAVİYATINI RIVOJLANTIRISHDA MILLIY VA UMUMINSONIY QADRIYATLARNING O'ZARO UYG'UNLIGI

*Inoyatxon Madimarovna Arzimatova*

*Falsafa fanlari nomzodi, dotsent*

*Teshaboyeva Xumora To'xtasinovna, 1-bosqich talabasi*

*Farg'ona davlat universiteti*

*Email: [arzimatova1969@gmail.com](mailto:arzimatova1969@gmail.com)*

*Farg'ona, O'zbekiston*

### MAQOLA HAQIDA

**Kalit so'zlar:** ma'naviyat, estetik madaniyat, milliy qadriyatlar, umuminsoniy qadriyatlar, badiiy tarbiya, ijodiy faollik, san'at, shaxs kamoloti, madaniy integratsiya.

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada shaxs ma'naviyatini yuksaltirish jarayonida milliy qadriyatlar bilan bir qatorda umuminsoniy estetik boylıklar, turli xalqlar madaniyati, urf-odatları va an'alarining o'zaro ta'siri kompleks tarzda tahlil etiladi. Shuningdek, estetik va badiiy tarbiyaning shaxs kamolotiga ko'rsatayotgan ta'siri, uning ijtimoiy va

---

**ВЗАИМОСВЯЗЬ НАЦИОНАЛЬНЫХ И ОБЩЕЧЕЛОВЕЧЕСКИХ ЦЕННОСТЕЙ В РАЗВИТИИ ДУХОВНОСТИ ЛИЧНОСТИ****Иноятхон Мадимаровна Арзиматова***Кандидат философских наук, доцент**Тешабоева Хумора Тохтасиновна, студентка I курса**Ферганский государственный университет**Фергана, Узбекистан*

---

**О СТАТЬЕ**

**Ключевые слова:** духовность, эстетическая культура, национальные ценности, общечеловеческие ценности, художественное воспитание, творческая активность, искусство, развитие личности, культурная интеграция.

**Аннотация:** В данной статье комплексно анализируется взаимное влияние национальных ценностей наряду с общечеловеческими эстетическими богатствами, культурой, обычаями и традициями различных народов в процессе повышения духовности личности. Также с научно-теоретической точки зрения обосновывается влияние эстетического и художественного воспитания на развитие личности, его роль в социальном и культурном прогрессе.

---

**Kirish.** Mustaqillik yillaridan boshlab Oʻzbekistonda maʼnaviyatni yuksaltirish davlat siyosatining ustuvor yoʻnalishlaridan biri sifatida belgilandi. Bu jarayonda milliy qadriyatlarni tiklash, tarixiy merosni asrab-avaylash va uning asosida yangi maʼnaviy muhitni shakllantirishga alohida eʼtibor qaratildi. Ayniqsa, adabiyot va sanʼat inson maʼnaviyatini boyitishda, milliy oʻzlikni anglash va jamiyat ongini yuksaltirishda muhim omil sifatida namoyon boʻldi. Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov taʼkidlaganidek, “Sizlarning mehnatingiz – har bir kalomingiz zarur, chunki u maʼnaviy oziq degan gap” [1], bu esa ijod ahlining jamiyat maʼnaviy hayotidagi beqiyos oʻrnini koʻrsatadi. Shu bilan birga, oʻtish davriga xos boʻlgan murakkab ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy jarayonlar shaxsdan yuqori darajadagi maʼnaviy-ijodiy faollikni talab etadi. Bunday sharoitda insonning ichki dunyosi, estetik didi va axloqiy qarashlari uning ijtimoiy faolligi va hayotiy pozitsiyasini belgilab beruvchi asosiy omilga aylanadi. Demak, shaxs tarbiyasida estetik muhitni shakllantirish, goʻzallik va ezgulikka intilishni ragʻbatlantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Shunday ekan, shaxsda sogʻlom estetik didni tarbiyalash, sanʼatni tushunish qobiliyatini tarbiyalash, undan maʼnaviy bahra olish imkoni-yatlarini kengaytirish, ezgulik, goʻzallik

fazilatlarini ma'naviy-axloqiy qiyofasida shakllantirishda estetik madaniyat ta'sirining ortib borishiga katta ehtiyoj sezilmoqda.

Buni yoshlarda yuksak ma'naviyatni shakllantirishda badiiy-estetik madaniyatning o'rnini va ahamiyatini aniqlash maqsadida o'tkazilgan konkret-sotsiologik tadqiqotlarimiz natijalari ko'rsatib turibdi. "San'atning inson hayotidagi o'rniga qanday baho berasiz?" degan savolga javob ber-ganlarning qariyb 73 foizi masalaga ijobiy munosabat bildiradi. Ular orasida san'atning o'zlikni anglashdagi rolini 22 foiz, estetik zavq ba-g'ishlashini 47 foiz respondent qo'llab-quvvatlagan. Amaliy san'atga mu-nosabatda ham estetik jihatni 53,3 foiz, uning ijodkorlik omili ekan-ligini 32 foiz ma'qullaydi.

So'ralganlardan 49,9 foiz bu masalani diniy va dunyoviy bilimlarni egallashga bog'lab tushuntiradi, tarixni, madaniyatni bilishni 38,7 foiz, milliy qadriyatlar va milliy g'ururga ega bo'lishni 31,2 foizi ijobiy baholaydi. Ko'rinadiki, ma'naviyatni yuksaltirishda estetik-badiiy qadriyatlar o'ziga xos baholanadi.

O'z mehnatidan mamnunlik tuyg'usi, kasb-hunarni e'zozlash, faoliyatda estetik talablarni moddiylashtirish ham ma'naviy tarbiyaning muhim sohasini tashkil qiladi. Yoshlar hukumatimiz tomonidan milliy kasb-hu-narmandchilik an'analari tiklanishi va rivojlantirilishi borasidagi ishlarni qo'llab-quvvatlaydilar. Tadqiqot natijalari ko'rsatadiki, Farg'o-na viloyati "Tadbirkor ayol" uyushmasi bu borada ibratli ishlarni amalga oshirmoqda. 16 000 dan ziyod a'zoga ega bo'lgan uyushma 20 shahar-tumanning 660 dan ortiq tadbirkor ayolini o'ziga birlashtirgan. Germaniyaning Reyn-gessen hunarmandlar palatasi tashkil qilgan o'quv mashg'ulotlarida bichish-tikish, shirinliklar pishirish, makrame, dasturxon bezash kabi mashg'ulot-larda 462 ayol ishtirok etgan. 500 ga yaqin ayol kasbiy mahoratini oshirish borasida "Vaqtini tejash", "Ekologiya masalalari", "Marketing", "Menej-ment", "Biznes rejalashtirish" seminarlarida faol qatnashgan. Uyushmaning yosh a'zosi - Farg'ona davlat universiteti talabasi Gulzoda Yorboeva makrame (to'qish) hunari bo'yicha "Zulfiya" mukofoti sovrindori bo'lgan.

**Asosiy qism.** Farg'ona shahridagi "Mash'al", "Temirchi", "Yormozor", "Pichoqchi", "O'rikzor" mahallalarida do'ppido'zlar, mahsido'zlar, oshpazu nonvoylar, sar-taroshlar, etikdo'zlar, beshiksozlar, nisholda-yu parvarda tayyorlovchi qan-dolatchilar faol mehnat qilishmoqda. Xotin-qizlar tashkilotlari, "Tad-birkor ayol" uyushmasi, "Kamolot" yoshlar ijtimoiy harakati, mehnat bo'-limlari, mahalla fuqarolar kengashlari milliy hunarmandchilikning ri-vojlantirishida faollik ko'rsatmoqda[3].

Viloyat hunarmandlar uyushmasining 500 nafar a'zosidan 85 foizga yaqinini yoshlar tashkil qiladi. Ular o'rtasida olib borilgan sotsiologik tadqiqot natijalariga ko'ra,tanlagan hunar sohasi kasb mahoratlarini oshirish va namoyon etishga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda, eng muhimi, estetik

jihozlangan sharoit, hunarmandlar o'rtasidagi samimiy muloqot, mehnat natijalari sifati, undan keladigan manfaat hamda ma'naviy-estetik mamnunlik mehnat unumdorligining ortishi, kasb-koriga sadoqat tuyg'ularini tarbiyalashda muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda. Uyushma ishtirokchilarining barchasi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1997 yil 31 martda e'lon qilingan "Xalq badiiy hunarmandchiligi va amaliy san'atini yanada rivojlantirishni davlat yo'li bilan qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmonida belgilangan vazifalarning muvaffaqiyatli amalga oshirilayotganligidan mamnunligini izhor qiladilar.

Tadqiqotlarga ko'ra, hunarmandlarning halol mehnatdan ijodiy zavq tuyishi kasb-hunarida ijodkorlik tuyg'usi ortishiga olib kelmoqda, ruhiyati va xarakterida jiddiy o'zgarishlarni sodir etmoqda, bularning barchasi istiqloq bergan huquq va imkoniyatlarning natijasi, deb qaral-moqda. Bunday yuksak ma'naviy kayfiyatni kasanachilar orasida olib borgan so'rovnomalarimiz natijalari ham to'la tasdiqlaydi[4].

Bugungi globallashuv sharoitida shaxs ma'naviyatini rivojlantirishda faqat milliy qadriyatlar bilan cheklanib qolish yetarli emas. Umuminsoniy estetik boyliklar, jahon madaniyati namunalari va boshqa xalqlar an'analarini o'zlashtirish orqali inson dunyoqarashi kengayadi, madaniy muloqot qobiliyati shakllanadi. Shu ma'noda xalqaro festivallar, madaniy forumlar va san'at anjumanlari muhim ahamiyat kasb etadi. Ular yoshlarning estetik tafakkurini boyitish bilan birga, ularda bag'rikenglik va madaniy xilma-xillikka hurmat tuyg'usini shakllantiradi.

"Sharq taronalari", "O'zbekiston madaniyati va san'ati forumi" jamg'armasi "Kamolot" yoshlar ijtimoiy harakati bilan hamkorlikdagi faoliyat, yosh dizayner va modelerlarning "Podium-2008" xalqaro o'ninchi tanlovi, 2009 yilda modalar bayramining o'tkazilishi jiddiy ahamiyatga ega bo'ldi. Bu o'rinda "Jahon adabiyoti" jurnali keng ko'lamda faoliyat olib bormoqda, shunday bo'lishiga qaramay, Yurtboshimiz ta'kidlashicha, uning jahon badiiy-estetik madaniyati durdonalarini targ'ibot faoliyati yetarli emas: "Holbuki, biz ma'naviyatimizni yuksaltirish, yoshlarimizni milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida kamol toptirishga intilayotgan ekanmiz, hech qachon o'z qobig'imizga o'ralashib qolmasligimiz kerak"[5]. Shunday qilib, ma'naviy hayotda, ayniqsa, barkamol yoshlarni tarbiyalashda estetik madaniyatning rang-barang sohalari faol ishtirok etmoqda, estetik-ma'naviy qadriyatlarni yaratish va boyitishda, o'zlaridan munosib estetik meros qoldirish ishiga e'tibor ortib bormoqda.

Mustaqillik, Xotira va qadrlash bayramlari, "O'zbekiston – Vatanim manim", "Ofarin", "Ona zamin", "Nihol" qo'shiqlar tanlovlari, musiqa, teatr, kino, me'morchilik, tasviriy san'at va dizayn qadriyatlari, shaharsozlik, qishloq-larni jihozlash sohasidagi faoliyat ma'naviy hayotimizni go'zallashtirib qolmay, bu sohadagi faoliyatni mazmunan boyitib, eng munosib moddiy va ma'naviy meros sifatida qadr topmoqda.

Shunday qilib, estetik madaniyat quyidagi vazifalarni amalga oshi-rib, shaxs ma'naviyatiga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda:

- milliy mafkuramiz g'oyalarini kishilar qalbi va ongiga singdirib, ularning yuksak orzular yo'lidagi xatti-harakatlarida mustahkam ruhiy omil vazifasini o'tamoqda;

- jamiyat a'zolarida ijodiy qobiliyat va imkoniyatlarni namoyon etish va ulardan oqilona foydalanishga ishonch uyg'otmoqda;

- tabiiy hamda ijtimoiy jarayonlarga insoniy munosabatda erkin faoliyat ko'rsatish ko'nikmalarini hosil qilmoqda;

- ma'naviy merosimizga hurmat hissini uyg'otmoqda, milliy g'urur, milliy iftixor tuyg'ularini shakllantirishga zamin yaratmoqda;

- ijodning barcha turlarini taraqqiy ettirib, jahonga yuz tutish va milliy manfaatlar yo'lida naf keltirishga da'vat qilmoqda;

- yoshlarni milliy g'oya ruhida estetik tarbiyalashga davlat siyosati da-rajasi ahamiyat berib, barkamol avlodni shakllantirish konsepsiyasini hayotga tatbiq etishga ta'sir ko'rsatmoqda;

Bu murakkab jarayonlar kechishida insonga eng yaqin, qadrdon va ayni undan ajralmas san'at asosiy vosita rolini bajaradi. Buning boisi shuki, san'at, birinchidan, ijtimoiy ongning boshqa shakllariga qaraganda inson-ga eng samarali ta'sir ko'rsatish omilidir; ikkinchidan, inson estetik ka-molotida g'oyaviy ma'no kasb etib, ma'naviy qadriyatlar ta'sirini barqa-rorlashtiradi va faollashtiradi.

Shaxsni estetik va badiiy tarbiyalash - favqulodda murakkab, ser-qirrali jarayondir. Bugungi ma'naviy-madaniy islohotlar ana shu maqsadga qaratilgan. "Ta'lim to'g'risidagi qonun" va "Kadrlar tayyorlash milliy Das-turi" insonparvar jamiyat qurishdek ulug'vor vazifani amalga oshirishga qaratilgan. Zero, "Kadrlar tayyorlash milliy Dasturi"da ta'limning ijti-moiylashuvi, ta'lim sub'ektining estetik dunyoqarashi, yuksak ma'naviyat, madaniyat va ijodiy fikrlashini shakllantirish ayni shu maqsadlarni ko'zda tutadi.

Rassom M. M. Fatxullinning fikricha, hozirgi davrda "dizayn va be-zak san'ati ustuvor. Bugun hamma joyda – reklamada ham, poligrafiyada ham, turar joy intererini jihozlash, joylashtirish kabilar bilan shug'ul-lanadigan firmada ham dizaynerga talab katta. Nisbatan mahobatli san'-atga ham talab katta"[6]. Shu bois ko'chalar, maydonlar, madaniyat muassa-salari, choyxonalar, bozorlar kishilarning kayfiyati, didini ko'tarishi, tarbiyaviy ta'sir ko'rsatishi lozim. Insonning madaniyat bilan muloqotida san'at tur va janrlarining shunchaki sintezini emas, balki haqiqiy go'zal-likni taqdim etish lozim. Har bir shahar va qishloq, tuman va hududning o'z ma'naviy muhiti mavjud bo'lishi, bu muhit inson bilan tabiat o'rtasidagi aloqadorlikni to'g'ri tashkillash bilan yuz ochishi, ularning hududlarini ko'kalamzorlashtirish, jihozlashda, "go'zallik

bilan foydali holatni uyg'unlashtirish hozirgi zamon landshaft me'morchiligining bosh talabi"[7] ekanligiga e'tibor qaratish lozim. Shuningdek, ta'lim tizimida estetik va badiiy tarbiyani kuchaytirish orqali barkamol shaxsni shakllantirish imkoniyati kengayadi. "Ta'lim to'g'risida"gi qonun va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"da belgilangan vazifalar ham aynan insonning ma'naviy, estetik va ijodiy kamolotini ta'minlashga qaratilgan. Bu esa ta'lim jarayonida san'at, madaniyat va estetik tarbiyaga alohida e'tibor qaratishni talab etadi.

**Xulosa.** Xulosa qilib aytganda, shaxs ma'naviyatini rivojlantirishda milliy va umuminsoniy qadriyatlarning uyg'unligi hal qiluvchi ahamiyatga ega. Estetik madaniyat ushbu jarayonda muhim vosita sifatida namoyon bo'lib, u insonning axloqiy, estetik va ijodiy kamolotini ta'minlaydi. Shu bois, jamiyat taraqqiyotining hozirgi bosqichida estetik va badiiy tarbiyaga alohida e'tibor qaratish, milliy va jahon madaniyati yutuqlarini uyg'unlashtirgan holda tarbiya jarayonini tashkil etish dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Karimov I.A.O'zbekiston: milliy istiqloq, iqtisod, siyosat, mafkura.- Toshkent:O'zbekiston, 1993. - 210 b.
2. Karimov I.A.Adabiyotga e'tibor-ma'naviyatga, kelajakka e'tibor.-Toshkent: O'zbekiston, 2009. – B. 8.
3. Egamberdieva T.Milliy hunarmandchilik ravnaqida ayollar faolligi //Xalq ta'limi.- 2006.- 1-son.-B. 50.
4. Karimov I.A. Adabiyotga e'tibor-ma'naviyatga, kelajakka e'tibor.-Toshkent: O'zbekiston, 2009. -32 b.
5. Fatxullin M.M. Zamonaviy san'atga bir nigoh // San'at-Toshkent, 2007, B.11.
- 6.Культура озеленения / Сост: В.П.Печеницын и др. –Ташкент: Шарк, 2005. - С. 4.